

**MINTAQADA MAKTAB VA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMININI  
RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY YONDASHUVI**

*UDK: 370.013.64*

*ORCID:0009-0000-6113-4203*

***Rushano Ilxomovna Aslonova***

*Nishon tumani maktabgacha va maktab ta'lifi*

*bulimiga qarashli 22 DMTT direktori*

*rushanaarslanova9@gmail.com*

**Annotatsiya:** Maqolada bilimlar iqtisodiyotining zamonaviy shakllarini jamiyatdagi bilim darajasini oshirish va manfaatdor tomonlar o'rtaida real ta'limni rivojlantirish orqali jamiyatda yangi texnologiyalarni yaratish va foydalanish qobiliyatiga ega avlod yetishtirishni tahlil qiladi. Muhokama qilingan asosiy imkoniyatlar qatoriga eksperiment rejasini ishlab chiqishga tayyorgarlik ko'rish, uni ishlab chiqish, tajribani amalga oshirish, tadqiqot obyektiga mos xossalarni guruhlash va empirik umumlashmalar kiradi. Maqola akademik almashinuv va global ta'lim platformalariga integratsiya bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni taklif etadi.

**Kalit so'zlar:** Xizmatlar tarmog'i, masofaviy ta'lim, Interaktiv ta'lim platformalari, innovassion rivojlanish, maktabgacha ta'lifi, gamifikatsiyalash, bilimlar iqtisodiyoti.

## **KIRISH**

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun davlat ta'lim standartlarini amalga oshirish, maktabgacha va maktab ta'lim sifatini oshirish uchun ob'yektiv zaruriyat hisoblanadi. Maktabgacha va maktab ta'lifi tizimida ta'lim usullarini modellashtirish tamoyillari bugungi kunda juda dolzarb va muhim, chunki u ta'lim tizimidagi murakkab jarayonlarni aniq tushunishga va ularga asoslangan qarorlarni qabul qilishga yordam beradi. Ushbu modellashtirish jarayonlari,

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

asosan, ma'lumotlarni toplash, ularni tahlil qilish va kelajakdagi qarorlar uchun yondashuvlarni shakllantirishga asoslanadi.

Har bir bola uchun individual ta'lim dasturini ishlab chiqish imkonini beradi.

Maqolada bolani erta yoshdan rivojlantirish, mакtabgacha ta'lim bolalarda intellektual va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Bilimlar iqtisodiyotining zamonaviy shakllari bu jarayonni individual yondashuv va innovatsion pedagogika orqali qo'llab-quvvatlaydi.

Bu urinda malakali kadrlar tayyorlash, bilimlar iqtisodiyotiga mos kadrlar tayyorlash uchun ta'lim tizimida uzlusizlikni ta'minlash, ya'ni mакtabgacha, mакtab va undan keyingi ta'limni integratsiyalash zarur.

Mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan mакtabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirish ko'zga tutilgan. Shu sababli mакtabgacha va mакtab ta'limi tizimida rivojlanishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan doimiy e'tibor berilib kelinmoqda[1]

Mакtabgacha ta'lim muassalarini ilmiy bilimlar va ilmiy faoliyat tizimi sifatida natijasi esa, nazariy va amaliy turdag'i Yangi ilmiy bilimlarda o'z ifodasini topadi. Mакtabgacha va mакtab ta'limi tizimida bilimlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ta'riflari keng manbalarda keltirilgan bo'lib, tadqiqotchilar ilmiy ishlarida ulardan foydalanishadi. [2]

Mакtabgacha va mакtab ta'limi tizimida negizida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ilmiy bilimlar, innovatsiyalar va yuqori malakali kadrlar iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylangan iqtisodiy modellashtirish va prognozlash, ko'p omilli empirik modellarini tasniflash masalalari olimlarning ilmiy izlanishlaridan keng joy egallagan.[ 3]

Mакtabgacha va mакtab ta'lim tizimini integratsion joriy etish jarayoni tahlil orqali ta'lim tizimidagi mavjud muammolar va imkoniyatlar aniqlanadi. Loyihalash orqali yuqoridagi tamoyillar asosida modellashtirish konsepsiysi ishlab chiqiladi. Joriy qilish orqali ta'lim jarayoniga yangi modellar va usullar amaliyotga kiritiladi.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

Monitoring va baholash orqali joriy etilgan tizim samaradorligi tahlil qilinadi va zaruratga ko‘ra takomillashtiriladi. Yuqorida bayon etilgan tamoyillar va usullarni joriy etish ta’lim jarayonining sifatini oshirish, o‘quvchilarning ijodkorlik va qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu yondashuvlar zamonaviy texnologiyalarni ta’limga joriy qilish orqali o‘quv jarayonlarini samarali tashkil etishni ta’minlaydi. Ta’lim jarayonlarini modellashtirishning zamonaviy talablariga javob beradi. Ushbu tamoyillar asosida ishlab chiqilgan model ta’lim samaradorligini oshirish, bolalarning shaxsiy va intellektual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Ta’lim jarayonini tashkil etish, darslarning sifatli va samarali o‘tkazilishi: Ta’lim rejalar, dars jadvalining moslashuvchanligi va darslarda talabalarning faolligi, yangi texnologiyalarning qo’llanilishi, raqamli texnologiyalar, interaktiv vositalar va zamonaviy usullar yordamida darslar o‘tkazish, o‘quv dasturlari sifati, o‘quv rejalarining mosligi, o‘quv dasturlarining talabalarning ehtiyojlariga, bozor talablari va jamiyat ehtiyojlariga mos kelishi ta’lim sifatini oshiradi. O‘qish muhitining sifatiga, infratuzilma, ta’lim muassasasining texnik jihozlanishi, laboratoriylar, kutubxonalar va ta’lim uchun zarur bo‘lgan boshqa vositalarning mavjudligi, talabalar uchun qulay sharoitlar, sog‘liqni saqlash, psixologik yordam va talabalar uchun qulay yashash va o‘qish sharoitlari ta’limning barqarorligi va doimiyligini oshiradi. Ayniqsa mehnat bozoriga moslashuvchanlik muhim ahamiyatga ega, bitiruvchilarning bandligi, bitiruvchilarning o‘qishni tamomlagandan so‘ng tezda ish topishi va o‘qigan sohasida ishslash darajasi va tadbirkorlik va ish topish ko‘nikmalarga ega bo’ladi. Ta’lim jarayonida o‘rgatilgan ko‘nikmalarining mehnat bozorida talab qilingan darajasi ahamiyatga ega. Bu sifat ko’rsatkichlari ta’im muassasalarini baholash, ularning ta’lim xizmatlarini yaxshilash va raqobatbardoshlik darajasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim sifati monitoring qilinib, ushbu ko’rsatkichlarga ko‘ra yaxshilash choralari ko‘rilishi mumkin.

Biznes jarayonlarini tartibga solish Bu tamoyil "Maqsadlarni aniq belgilash va integratsiyalashgan yondashuv" bilan bog‘liq. Ta’lim jarayonlarini tartibga solish dars rejalarini ishlab chiqish, o‘quv dasturlarini optimallashtirish va nazorat qilishni o‘z ichiga oladi. Masalan, dars rejalarining bosqichma-bosqich tuzilishi.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Biznes jarayonlar va moslashuvchanlik darajasi ushbu element "Shaxsiylashtirilgan ta'lim tamoyili" bilan bog'liq. Har bir o'quvchining ehtiyojlariga mos moslashuvchan ta'lim dasturlari joriy etilishi ushbu tamoyilni amalda qo'llashni ta'minlaydi. Masalan, o'quvchilarga moslashtirilgan topshiriqlar yoki elektron platformalar orqali individual ta'lim.

Boshlang'ich boshqaruv darajasi "Ta'lim sifati nazorati tamoyili" bilan bog'liq. Ta'lim jarayonini boshqarish va sifat nazoratini joriy qilish uchun boshqaruv usullari talab qilinadi. Masalan, o'qituvchilarning faoliyatini monitoring qilish, ta'lim sifatini baholash.

Har xil turdag'i mashg'ulotlarning mavjudligi (sinflar, tashqi joylar va bo'shliqlar) "Ta'lim jarayonini tashkil etishning turli shakllari" tamoyili. Ta'lim jarayonining xilma-xilligini ta'minlash o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularning faolligini rag'batlantiradi. Buni amalga oshirishda Sinfda o'tkaziladigan nazariy darslar, tashqi muhitda (tabiat qo'ynda yoki muzeylarda) amalga oshiriladigan amaliy mashg'ulotlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan foydalaniladi.

Tarbiyaviy faoliyatning maqsadli yo'nalishida "Maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili" bilan bog'liq. Tarbiyaviy faoliyat ta'limning asosiy maqsadlariga erishishda muhim vosita hisoblanadi. Amalga oshirishda har bir dars tarbiyaviy maqsadlar bilan boyitiladi. O'quvchilarning ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqiladi. Ta'lim mazmunining talablariga muvofiqligi darajasi ish beruvchi "Ta'limning dolzarbliji va moslashuvchanligi tamoyili." Ta'lim mazmuni mehnat bozori va zamonaviy talablarga moslashtiriladi. Amalga oshirish jarayoni ish beruvchilar bilan hamkorlikda ta'lim dasturlari shakllantiriladi. O'quvchilarga mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan bilim va ko'nikmalar beriladi.

Ekologik talablarga moslashtirilish uchun "Ijodkorlik va tadqiqot faoliyati tamoyili"ni ta'lim jarayonlarida ekologik ongni rivojlantirish va barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etish uchun, o'quvchilarga ekologik masalalar bo'yicha loyihami shishlar berish va tabiyatni asrash bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil qilish lozim.

Bu jarayonning bosqichlari va ketma-ketligi:

1. Boshlang'ich jarayon: Mashg'ulotlarni tashkil qilish va ularning turli xil

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

shakllarini tanlash (sinf mashg'ulotlari, tashqi joydagi amaliyotlar).

2. Tarbiyaviy yo'nalish: Har bir jarayonda maqsadli tarbiyaviy yo'nalish belgilash.

3. Masmunni aniqlash: Ta'lim mazmunining mehnat bozori va zamonaviy talablariga mosligini tekshirish.

4. Yangilik va dolzarblik: Ta'lim mazmunini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish.

5. Ekologik uyg'unlik: Ta'lim jarayonlarini ekologik talablarga moslashtirish orqali barqarorlikni ta'minlashdan iborat.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytish mumkinki, bolaning kelajak hayotdagi faolligi, uning farovon va to'kin yashashi haqidagi tasavvurlari, bilim, malaka va ko'nikmalari kichik yoshdan shakllantirilib borilishi lozim. Ko'rsatkichi past darajadagi bolalar bilan individual ishslash, ularni kelajak hayotga tayyorlash maqsadga muvofiq. Ta'lim jarayonlari uchun muhim tamoyillarni belgilash ketma-ketligi ko'rsatilgan. Ushbu tamoyillar ta'lim jarayonini nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirish, shuningdek, o'quvchilarning bilim va qobiliyatlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Har bir bosqich bir-birini to'ldiradi va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan.

### **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida 08.05.2019 yildagi PQ-4312-sont
2. N.M.O'Rinova, I.I.Tuychiyeva, B.X.Baydjanov. (2023). Umumiy pedagogika (pedagogika nazariyasi) o'quv qo'llanma.
3. Лутфуллаева Д., Давлатова Р., Тожибоев Б. Ассоциативный словарь узбекского языка.- Ташкент:«NAVOIY UNIVERSITETI», 2019.